




INNOVATIVE WORLD
Ilmiy tadqiqotlar markazi

ZAMONAVIY ILM-FAN VA TA'LIM: MUAMMO VA YECHIMLAR ILMIY-AMALIY KONFERENSIYA



Google Scholar doi

zenodo

OpenAIRE



+998335668868



<https://innoworld.net>

2025



**«INNOVATIVE WORLD» ILMIY TADQIQOTLARNI QO'LLAB-
QUVVATLASH MARKAZI**

**«ZAMONAVIY ILM-FAN VA TADQIQOTLAR: MUAMMO VA
YECHIMLAR» NOMLI 2025-YIL № 5-SONLI ILMIY, MASOFAVIY,
ONLAYN KONFERENSIYASI**

**ILMIY-ONLAYN KONFERENSIYA TO'PLAMI
СБОРНИК НАУЧНЫХ-ОНЛАЙН КОНФЕРЕНЦИЙ
SCIENTIFIC-ONLINE CONFERENCE COLLECTION**

Google Scholar



ResearchGate

zenodo



ADVANCED SCIENCE INDEX



OpenAIRE



**Academic
Resource
Index
ResearchBib**



Directory of Research Journals Indexing

www.innoworld.net

O'ZBEKISTON-2025



**OILAVIY MUHITNING BOLADA NUTQI RIVOJLANISHIGA PSIXOLOGIK
TA'SIRI****Akramova Feruza Akmalovna**

Psixologiya kafedrasi professori , psixologiya fanlari doktori

Aliyeva Farangiz, O'rmonaliyeva Fotima

O'zbekiston milliy pedagogika univertseti

Annotatsiya: Ushbu maqolada oilaviy muhitning bolada nutq rivojlanishiga psixologik ta'siri chuqur tahlil qilinadi. Bolaning emotsional holati, ijtimoiy intellekti, o'ziga bo'lgan ishonchi va shaxsiy rivojida oila muhitining tutgan o'рни yoritilgan. Maqolada ota-onalar bilan farzandlar o'rtasidagi o'zaro muloqot sifati, hissiy qo'llab-quvvatlash va oilaviy munosabatlarning (munozaralar, qadriyatlar) bolaning nutqiy kamolotiga bevosita ta'siri tahlil qilinadi. Maqola oilaviy muhitning bolaning emotsional holati, ijtimoiy intellekti va umumiy psixologik barqarorligiga ijobiy va salbiy ta'sirini ko'rsatib, sog'lom rivojlanish uchun oilada yaratilishi lozim bo'lgan psixologik sharoitlar bo'yicha tavsiyalar beradi.

Kalit so'zlar: Oila psixologiyasi, nutq, emotsional xavfsizlik, ota-ona munosabati, ruhiy sog'lomlik, tarbiya uslubi, o'zaro muloqot, psixologik muvozanat, jamiyat, tarbiya, muhit

Bola dunyoga kelgan ilk kundan boshlab ijtimoiy muhit ta'sirida rivojlanadi. Rivojlanish psixologiyasi fanining asosiy vazifasi – bolalarning yosh xususiyatlarini, psixik rivojlanish jarayonlarini, tafakkur va hissiy kechinmalarini ilmiy jihatdan o'rganishdir. Shu jarayonda eng muhim omil – oila hisoblanadi. Oilaviy muhit bolaning dastlabki tarbiya maktabi bo'lib, undagi mehr-muhabbat, qo'llab-quvvatlash yoki aksincha, beparvolik va ziddiyatlar bolaning psixikasiga kuchli ta'sir ko'rsatadi. O'zbek xalqida "Oila — jamiyatning tayanchi" degan ibora bejiz aytilmagan. Chunki sog'lom oilaviy munosabatlar kelajakda barkamol avlodni tarbiyalashda poydevor vazifasini bajaradi.

Oila – bu shaxsning jamiyatga birinchi qadam qo'yadigan ijtimoiy maktabi. Aynan oila muhitida bola o'zining ilk psixologik holatlarini shakllantiradi, dunyoni anglaydi, o'zini tanlaydi va his qiladi. Oiladagi psixologik muhit bolaning ruhiy sog'lomligi, o'ziga bo'lgan ishonchi, boshqalar bilan muloqotga kirishish darajasi va umuman, uning kelajakdagi ijtimoiy muvaffaqiyati uchun asosiy omil hisoblanadi. Shu boisdan, bolalarning psixologik rivojlanishida oilaning o'рни chuqur tadqiq etilishi, mavjud muammolar va ularning yechimlari aniqlanishi dolzarb hisoblanadi. Ayrim oilalarda bolalar sevgi, e'tibor va hissiy qo'llab-quvvatlashga ega bo'lsa, boshqa hollarda bu omillar yetishmaydi. Bu farqlar esa bolaning shaxsiyati, xulqi va psixik holatlarida keskin tafovutlar keltirib chiqaradi. Bolaning sog'lom psixologik rivojlanishi uchun oilada ijobiy muhit, izchil tarbiyava

ruhiy xavfsizlik zarurdir. Shu sababli, ushbu maqolada oiladagi psixologik omillar, muammolar va ularning bola nutqiga ta'sirikeng tahlil qilinadi.

Oila muhitida bolaning nutqiy rivojlanishiga ta'sir qiluvchi asosiy omillar quyidagilardan iborat: emotsional qo'llab-quvvatlash, psixologik xavfsizlik, ota-onalarning shaxsiy namunalari, ijtimoiy munosabatlar va tarbiya uslublari. Ushbu omillar bolaning o'zini anglash darajasi, o'zigabo'lganbahosi, boshqa insonlarga nisbatan munosabati va stresslarga qarshi turish salohiyatini belgilaydi.

Nutq – bu insonning eng muhim ijtimoiy ko'nikmasi bo'lib, tafakkur, hissiyot va shaxsiyatning shakllanishida hal qiluvchi rol o'ynaydi. Nutq orqali bola atrofida sodir bo'layotgan voqea-hodisani anglaydi va tahlil qiladi. Bolaning nutqi asosan uning atrofi – ayniqsa, oilaviy muhit – ta'siri ostida shakllanadi. Oila nafaqat bolaning hayotiy ehtiyojlarini qondiruvchi makon, balki uning psixologik rivojlanishi, jumladan nutqiy ko'nikmalarining rivojlanishi uchun ham asosiy platformadir.

Bolaning nutqiy rivojlanishi, avvalo, uning oilaviy sharoiti, ota-ona va qarindoshlar bilan muloqoti darajasiga bog'liq. Oilada iliq muhit, mehr va e'tibor mavjud bo'lsa, bola o'zini erkin his qiladi va so'zlashishga qiziqadi. Aksincha, sovuq yoki befarq muhitda bola o'z fikrini ifoda etishda qiyinchiliklarga duch keladi. Agar ota-onalar farzandlari bilan muntazam ravishda murakkabroq, xilma-xil so'zlardan foydalanib gaplashsa, bola ham shu lug'atni o'zlashtiradi, chunki bola ota-ona nutqiga taqlid qiladi. Oilada qo'pol so'zlar ishlatilsa, shubhasiz, bola ham shu so'zlarni ayta boshlaydi yoki bu holat aksincha bo'lishi ham mumkin.

Psixologik muhit bolaning nutqiy rivojlanishida hal qiluvchi rol o'ynaydi. Ota-onaning bolaga e'tibori, unga savollar berishi, uning so'zlarini qo'llab-quvvatlashi bolaning nutqiy faoliyatini rivojlantiradi. Shuningdek, ijobiy emotsional muhit bolaning o'ziga ishonchini kuchaytirib, so'z boyligini kengaytirishga yordam beradi.

Bundan tashqari bola nutqiga ta'sir ko'rsatuvchi omillar: 1) Neyropsixologik omillar. Bola nutqi rivojlanishida nafaqat oilaviy muhit, balki bosh miya faoliyati va asab tizimining qay darajada sog'lomligi ham ahamiyatga ega. Psixologlar ta'kidlashicha, bolaning ilk uch yili nutq rivoji uchun "oltin davr" hisoblanadi. Chunki bu paytda bola tezkorlik bilan yangi so'zlarni o'zlashtiradi.

2) Muloqot sifati. Ba'zi ota-onalar bolani "chuv" qilib, soddalashtirilgan tilda gaplashadi. Bu, bolaning to'g'ri fonetik (tovush) va grammatik tizimni o'zlashtirishini sekinlashtirishi mumkin. Bolaning yoshi va qabul qilish darajasiga mos ravishda gaplashish nutq rivojlanishi uchun optimaldir.

3) Muhitning nutqiy jihatdan boyligi. Oila davrasida bolalar bilan turli xil mavzuda (hayvonlar, o'simliklar, hasharotlar , ertaklar, turli yodlashga

oson va bola tushunadigan she'rlar) suhbatlashish bolaning ham nutqiy, ham ma'naviy jihatdan o'sishiga sabab bo'ladi.

4) Nutqiy qiyinchiliklarning vaqtida aniqlash. Ota-onalar bolaning nutqida logopedik muammolar (dislaliya, duduqlanish, tovushlarni noto'g'ri talaffuz qilish)ni erta sezsa, mutaxassisga murojaat qilishi muhim. Nutqiy qiyinchiliklarni vaqtida tuzatmaslik bola psixikasiga ham salbiy ta'sir qiladi. Ko'plab tadqiqotchilar oilaning bola rivojlanishidagi o'rnini tasdiqlagan. Masalan, Vigotskiy "bola madaniy muhit orqali rivojlanadi" deya ta'kidlagan bo'lsa, zamonaviy o'zbek psixologlari ham oiladagi ilqlik va hamjihatlikning bola psixikasiga bevosita ta'sirini ko'rsatib kelmoqda.

Tadqiqot natijalari ham ko'rsatdiki, ota-onaning faol muloqoti bolaning tafakkuri va nutq rivojlanishida katta ahamiyatga ega. Bundan tashqari, Erikson (1963) aytganidek, maktab yoshidagi bolalarda mehnatsevarlik hissi oilaviy rag'batlantirish orqali rivojlanadi.[4] Tajribada otaonasi bolani rag'batlantirib kelgan o'quvchilar darsda faol, tashabbuskor bo'lib chiqdi. Bugungi globallashuv davrida ayrim oilalarda ijtimoiy tarmoqlar, moddiy tashvishlar yoki migratsiya sababli bola bilan muloqot kamaymoqda. Bu esa bolaning hissiy rivojiga salbiy ta'sir qiladi. Shu bois ota-onalarning psixologik savodxonligini oshirish jamiyat uchun dolzarb masaladir.

Psixologlarning kuzatishicha, oilada har kuni kamida 30 daqiqa kitob o'qib berilgan bolalarning nutqiy rivoji boshqalarga qaraganda tezroq kechadi. Ota-onasi tez-tez suhbat qiladigan bolalar 5-6 yoshida o'rtacha 1500-2000 so'zli lug'atga ega bo'ladi. Mashhur rus psixologlari L.S. Vigotskiy[3] va A.R. Luriya[2] ta'kidlashicha, bolaning nutqiy rivoji uning "yaqin rivojlanish zonasi"ga bevosita bog'liqdir. Ya'ni, bola o'z-o'zidan emas, balki kattalar yordamida, ular bilan muloqot jarayonida yangi nutqiy ko'nikmalarni egallaydi.

Oiladagi har bir suhbat —bolaning tafakkuri va nutqini kengaytiruvchi asosiy omil hisoblanadi. Amerikalik olim N. Chomskiy nutq qobiliyati tug'ma bo'lib, uni rivojlantirish uchun muhit muhimligini ta'kidlaydi[5]. Shveytsariyalik J. Piaget esa nutq tafakkur bilan chambarchas bog'liq bo'lib, bola ko'proq muloqot qilsa, uning kognitiv (bilish) qobiliyatlari ham tezroq shakllanishini isbotlagan.[6]

Zamonaviy tadqiqotlar: AQShda olib borilgan tadqiqotlarda (Hart va Risley, 1995) aniqlanishicha, ota-onasi bilan muntazam va boy lug'atli suhbat qiladigan bolalar 4 yoshga kelganda kam suhbat qiladigan bolalarga nisbatan 3 barobar ko'proq so'z biladi. Yaponiyada o'tkazilgan kuzatishlarga ko'ra, oilada ko'proq qo'shiq kuylash va ertak aytish an'analari bolalarning fonematik eshituvini, ya'ni tovushlarni farqlash qobiliyatini rivojlantiradi.

Xulosa. Oilaviy muhitning bolada nutq rivojlanishiga ta'siri bevosita psixologik jihatga ega. Sevgi, qo'llab-quvvatlash, xavfsizlik va faol muloqot – bu nutqning sog'lom rivojlanishi uchun zarur bo'lgan to'rtta ustundir. Ota-

onalar farzandlari bilan gaplashayotganda, ular nafaqat so'zlarni o'rgatishadi, balki ularning o'z-o'ziga ishonchini, o'z fikrini erkin ifoda etish qobiliyatini ham shakllantirishadi. Shuning uchun, oiladagi psixologik sog'lomlikka e'tibor qaratish – bu bolaning kelajakdagi ijtimoiy va intellektual muvaffaqiyatiga qo'yilgan eng muhim sarmoyadir. Zero, bola nutqi uning tafakkuri va ijtimoiylashuvining muhim ko'rsatkichidir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. G'oziyev E. Bolalar psixologiyasi. —Toshkent: O'zbekiston, 2010
2. Sattorova D. Nutq o'stirish metodikasi. —Toshkent: Fan va texnologiya, 2015
3. Vigotskiy L.S. –“Myshleniye i rech” (1934, keyinroq qayta nashrlar 1999 va 2001 yillarda chiqqan)
4. L.Muminova, M.Ayupova, Sh. Amirsaidova, L.Nurmuhammedova. Logopsixologiya.—Toshkent, 2007; 6.M.U.Xamidova.Maxsus pedagogika.—Toshkent, 2018
5. Karimov F. Rivojlanish psixologiyasi. Toshkent, 2018.
6. Qodirova R. Oila psixologiyasi asoslari. Toshkent, 2020.

